

**CHO'LON DRAMATURG SIFATIDA. "YORQINOY"  
DRAMASINING IJTIMOIIY AHAMIYATI**

*Arabboyeva Nasiba Avazbek qizi*

*Andijon davlat universitetitalabasi*

*Ilmiyrahbar: Abdullayeva Dildoraxon.*

*Andijon davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori*

*E.pochta: [nasibaarabboyeva02@gmail.com](mailto:nasibaarabboyeva02@gmail.com)*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada dramaturgiya tarixi, Cho'lponning dramaturgiya sohasiga qo'shgan hissasi, uning dramatik asarlari, jumladan, "Yorqinoy" dramasi, uning dramaturgiyadagi o'ziga xos o'rni, unda tasvirlangan ijtimoiy muhit, qahramonlarning ruhiyati haqida fikr yuritiladi.*

***Kalitso'zlar:** dramaturgiya, "Yorqinoy" dramasi, dramadagi obrazlar, epos bilan bog'liqlik, Po'lat, O'lmasbotir, Nishobsoybegi, Momoxotin.*

Abdulhamid Cho'lponning 20-yillarda yaratilgan va dramaturgga katta shuhrat keltirgan "Yorqinoy" dramasi ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ega sahna asaridir. Ijtimoiy xususiyati shundaki, ijodkor o'zi yashagan davrdagi adolatsizliklarni o'z asaridagi Po'latxon obrazi orqali qoralagan.

Cho'lpon ijodida bu pyesa alohida ahamiyatga ega. 1920-yilda yozilgan bu asar birinchi marta Mannon Uyg'ur truppasi tomonidan 1921-yilda sahnalashtirilgan. Keyinchalik esa Moskvada yurgan vaqtlarida qayta ishlagan. S. Husayning yozishicha, qayta ishlangan holatida Kamol II va studiyadagi boshqa tanishlar fikrini ham inobatga olgan. Kamol II haqida esa tanqidchi quyidagi ma'lumotni keltirgan:

"Tataristonda 1905-1906-yillarda tashkil topgan "Sayyor" drama truppasi inqilob arafalariga kelib, rivojlangan va malakali kadrlarga ega bo'lgan tatar teatrining paydo bo'lishiga zamin hozirladi. Inqilobdan keying turli yillarda esa professional tatar teatrlari faqat Tatariston va Boshqirdistonda

emas, balki Moskva, Astraxan, Perm, Toshkent singari shaharlarda ham barpo etildi. O‘zbek teatrining tug‘ilishiga samarali ta’sir ko‘rsatgan “Sayyor truppasi va umumtatar teatri bilan ijodiy aloqa keyinchalik ham davom etdi. O‘zbek drama studiyasi Moskvada ijod va mahorat maktabini o‘tayotgan yillarda bu yerda tatar teatri ham o‘z faoliyatini davom ettirayotgan edi. Uning yetakchi rejissor va aktyorlari til va madaniyat jihatidan o‘zbek studiyasiga yaqin bo‘lganlari sababli ayrim asarlarni sahnaga qo‘yishda ularning yordami foydali deb topildi. Xususan, 1912-1918-yillarda “Sayyor” truppasi bilan birgalikda Toshkentda gastrolda bo‘lgan o‘sha paytda esa Moskvadagi tatar teatrida xizmat qilgan aktyor Kamol II “Yorqinoy” pyesasini sahnalashtirish ishiga taklif etildi. U o‘zbek teatrining maydonga kelishiga ko‘mak bergan qardosh teatr arboblardan biri - Kamol I ning ukase bo‘lib, tatar sahnasida Ferdinand (“Makr va muhabbat”), Karl Moor (“Qaroqchilar”) rollarining mohir ijrochisi sifatida shuhrat qozongan. Kamol II, tahmin qilish mumkinki, “Yorqinoy”ni sahnaga qo‘yar ekan, bosh qahramonlar sajiyasidagi qahramonlik mohiyatini ochishga katta e’tibor bergan. Ammo bu spektakl, aftidan, o‘zbek teatrining bo‘lgusi buyuk rejissori Mannon Uyg‘urga u qadar manzur bo‘lmagan shekilli, oradan bir yil o‘tgach, u asarni qayta sahnaga qo‘ygan. Shunday qilib, Cho‘lpon dramaturgiyasining shoh asari “Yorqinoy” o‘zbek sahnasida uch marotaba qo‘yildi”<sup>1</sup>

Cho'lpon 1926-yil 29-mart kuni Moskvada pyesaning kitob variantiga yozgan bag‘ishlovida quyidagi fikrlarni bildirgan: “Totli va boy tili bilan ertak aytib berib, shu asarning yozilishiga sabab bo‘lgan KAMPIR ONAGA hurmat bilan bag‘ishlayman. Cho‘lpon bu so‘zlari bilan asarni Kampir onaga bag‘ishlaganinigina emas, balki shu asar yozilishiga sabab bo‘lgan inson ham u ekanligini ta’kidlagan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, Cho‘lpon kampir onadan “Yorqinoy” asarini yozishga turtki bergan biror rivoyat eshitgan va u Cho‘lponda katta taassurot qoldirgan. Ammo u benazir iste’dodga ega

---

<sup>1</sup> Cho‘lpon badiiy olami. T.: Fan.1994

yozuvchi sifatida bu rivoyatlarning oddiy bayonchisi bo‘lib qolmagan. Rivoyatni qayta ishlagan, o‘z g‘oyalari bilan boyitgan. Ammo, baribir, u asar negizida uning folklor manбайдan olingan fabulani qoldirgan. Afsuski, biz juda ko‘plab yozma asarlarimiznigina emas, balki og‘zaki ijodimiznamunalarini ham saqlab qololmadik. Ehtimol, biror folkloreshunos Kmapir ona bilan uchrashganida, “Yorqinoy” asari uchun turtki bo‘lgan rivoyatni ham yozib olgan bo‘larmidi? Balki Cho‘lpon eshitgan ertak yo ertaklarning yozib olingan boshqa variantlari bordir. Har holda uning o‘zbek xalq ijodidan o‘sib chiqqanligini rad etolmaymiz.

Asar sahnalashtirilganda bosh rollarni Z.Hidoyatova (Yorqinoy), O.Jalilov (Po‘lat), Sh. Najmiddinov (O‘lmas Botir), T. Saidazimova (Qumri) ijro etganlar.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi, rejissor Nosir Otaboyev tomonidan Milliy akademik drama teatrida qo‘yilishi (1994) asarning istiqloq davrida yaratilgan ilk talqini bo‘ldi.

Xarakterli tomoni shundaki, sahnaga qo‘yuvchi va teatr jamoasi dramaning asosiy mazmuniga zarar yetkazmagan holatda, uning deyarli barcha personajlarini saqlab, konfliktning to‘la mohiyatini ko‘rsatib berib, voqea-hodisalarni qisqartmasdan yangi spektakl yaratishga muvaffaq bo‘lganlar. Bu kattta ijodiy mehnat samarasidir. Rejissor “Yorqinoy”ni sahnalashtirishda ikki muhim narsani nazarga oldi va ularga jiddiy uyg‘u berdi.

Birinchisi, asarning “afsonaviy tomosha” ekanligi, ikkinchisi esa hozirgi zamon uchun saboq bo‘la oladigan jihatlaridir.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, bu asarga folklor asos bo‘lganligi uchun ham butun spektakl mohiyatidan, personajlar xarakteridan va qilmishlaridan, voqea-hodisalarning tabiatidan xalq og‘zaki ijodining ruhi sezilib turadi. Binobarin, asarda romantizm ustunlik qiladi. Adolat va haqiqat uchun kurash, chin sevgini muhofaza qilib, mehr-oqibat ko‘rsatish, nohaqlikni keskin fosh etish romantizm qobig‘iga o‘rab aks ettiriladi.

— Ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan “Yorqinoy” dramasi o‘sha davr manzarasini ochib berish bilan birga, sinfiy tafovut, qahramon ijodi kabi hodisalarni ham muhokama ostiga olgan.

Sotti Husayn va Sulaymon Azim “Yorqinoy” degan maqolasida asarning shuncha yildan beri sahnadan tushmay kelishini uning tili, hajviy qismi yaxshi bezattirilganligi va teatrning “boshqa dastmoyamiz yo‘q” degan gap bilan asarni “shu vaqtgacha himoya qilishidir” deb izohlaydi. Bu pyesani “Mushtumzo‘r” dan ham zararliroq deyishadi. Mualliflar Cho‘lponga shu qadar jiddiy ayb qo‘yishadiki, bu maqoladan keyin uni otib tashlasa ham, sovet hokimiyati go‘yo adolatni himoya qilgan bo‘ladi. “Yorqinoy” afsonasi “burjuaziya ideologiyasini o‘tkazish uchun proletariat diktaturasi dushmanlari tomonidan ifoda etilgan afsona” emish, “proletariat yo‘lboshchiligini inkor qilar” emish. Ishchilar bilan dehqonlarni bir-biri bilan ajratishga chaqirar va “dehqonlar o‘z-o‘zini mudofaa etib mutashakkil kuch bo‘la oladi”, degan g‘oyani targ‘ib qilgan emish.<sup>2</sup>

Cho‘lpon bu asarda odamlarning shaxsiyatini axloq tushunchasi o‘qida so‘roq qiladi. Asarning bosh qahramoni Po‘lat oddiy hayot kechirar ekan, voqealar ta’sirida idealistik tipga aylanadi.

Asar voqealari bosh qahramonlari Po‘latxon va Yorqinoy, epizodik obrazlar O‘lmas Botir, xizmatchi qiz Qumri, Nishobsoybegi, Momoxotin, Kal, Xonzoda kabilar atrofida 5 joyda, ya’ni O‘lmas botirning qo‘rg‘on bog‘chasi, yana bir bog‘cha, Nishobsoy begining bog‘chasi, Nishobsoybegining haram uylaridan biri va xon saroyida yuz beradi. Har bir pardadagi voqealar alohida-alohida makonlarda sodir bo‘ladi.

Ko‘p asarlarda hayotdagi adolatsizliklar tasvirlanar ekan ishq-muhabbat majorolari ham olib kiriladi. Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon", "O‘tkan kunlar" romanlarida ham bir tomondan Qo‘qon xonligi davridagi ijtimoiy adolatsizliklar ko‘rsatilsa, bir tomondan oshiq va mashuqaning ishqiy

---

<sup>2</sup> Чулпон бадийй олами.” Фан “нашрийоти. 1994 --й

sarguzashtlari tasvirlanadi. Bu usul asarning ta'sirchanligini yanada orttirishga xizmat qiladi. Chunonchi, Abdulhamid Cho'lponning "Yorqinoy" dramasida ham xonlik davri zulmiga qarshi yuz bergan "Po'latxon" qo'zg'oloniga ishora mavjud. Bosh qahromonga Po'latxon ismining tanlanishiyoq buning dalilidir.

Po'lat itoatkor bog'bon emas, isyonkor qalbi qasos o'ti bilan to'lgan dovyurak inson. Bu sifatlari uning O'lmas Botir bilan bo'lgan kurashda yaqqol tasvirlab berilgan. Shafqatsiz xo'jayinga bo'lgan g'azab, gina o'ch Po'latni tog'ga chiqishga majbur qiladi. Po'lat jonini evaziga bo'lsa ham zulmni tugatishga intiladi. Qishloq ahli ham Po'latga ishonadi. Bu e'tiqod Po'latga insoniy muhabbatdan vatanparvarlik muhabbatiga o'tishga imkon beradi. Asar mustabid xo'jayin O'lmas Botirning zulmi va bu voqealarning oldini olmoqchi bo'lgan Po'lat o'rtasida kurash atrofida sodir bo'lgan voqealarga asoslangan.

Xalq ertaklaridagi dono mo'ysafidlar obrazi hisoblangan Chol Po'latning adolatdan boshqa niyati ta'kidlab, "Shunday odamning qo'li yuqori bo'lmasdan, agar bir qonxo'r, zolimning qo'li baland bo'lsa... Falak tugil har kimdan qaytib ketaman"<sup>3</sup> deydi. Hatto O'lmas Botir saroyning adolatsizliklarimi o'z taqdirida tatib ko'rgandan keyin "Nomussiz saroy, hamiyatsiz saroy"<sup>4</sup>, -deydi, (dramaturg uni faqat qora bo'yoqda tasvirlamaydi, qizini shu qadar sevadiki, hatto xotini o'lgach, o'gayning qo'lida siqilmasin deb uylanmaydi, xatosini mardlarcha tan olib, Po'latdan kechirim so'raydi...). Bu so'zlar va asarning butun mazmuni, voqeasi, syujeti, unda ishtirok etgan odamlarning xatti-harakati, kurashi asarning demokratik yo'nalishini, insonparvarlik ruhini to'la namoyish qiladi. Albatta, badiiy asarning ta'sir kuchi, aks-sadosi, maqsad-g'oyas, imo-ishorasi bir davr va biror mintaqaning o'zi bilan cheklanib qolmaydi, u vaqt va makon nuqtai nazardan nihoyasizdir. Ammo har bir badiiy asar o'z davrining ma'naviy-ruhiy ehtiyoji, orzu-armoni bilan dunyoga keladi va birinchi navbatda, o'sha zamon uchun xizmat qiladi.

---

<sup>3</sup> O'sha asar 128-bet

<sup>4</sup> O'sha asar 152-bet

Choʻlpon bosmachilik davridagi qirgʻin adolatsizliklar- yangi jamiyat idealiga zid sababsiz qon toʻkishlarni oʻz koʻzi bilan koʻrdi.

Choʻlpon yurt borasidagi orzu-armonlarini mana shu dramasida ifodalay oldi. U asarda hayotga, voqelikka keng nigoh bilan boqqan, asarga xos epiklik shundan kelib chiqqan: undagi romantikani, qahramonlik ruhini tugʻdirgan narsa ham ishtirok etuvchilarning – ikki qutbning qarashlarini, shaxsiy hayotlarini, sevgi tarixlarining mufassal koʻrinishidir. Unda Poʻlat – Oʻlmas Botir, xonlik chizigʻi, Poʻlat – xonzoda , Poʻlat-Yorqinoy- Qumri, Poʻlat-Yorqinoy- Oʻlmas Botir, Yorqinoy- Bek – Kal kabi syujet chiziqlari bor. Bu chiziqlar bir-biri bilan uzviy tutash, bir-birini taqozo qiladi.

Muallif asarda alohida taʼkidlagan obrazlardan biri Oʻlmas Botir boʻlib, oʻzi qilgan vahshiyliklari bilan oʻquvchini larzaga soladi. Xonlar hukmronligidagi Turkistonda adolat oʻz oʻrnini shafqatsizlikka boʻshatib berdi. Bu asarda zulm namoyondalari Oʻlmas Botir va Nishobsoy beklaridir.

Poʻlat Oʻlmas Botirdan yongʻoq tagidagi teshikda yotgan odamlar kimligini, qancha odam borligini soʻraydi. Chuqurdan topilgan suyaklar kimga tegishli, arizada nimalar yozilgan, degan savol Oʻlmas Botirni hayratga soladi. Ammo unda na uyatdan , na pushaymonlikdan asar ham yoʻq. poʻlat oʻqish va yozishni bilmasa-da, ariza tufayli chuqurda yotganlar uning otasi, ukasi, amakisi va boshqa qarindoshlari ekanligini bilib oladi. Shafqatsiz insonlar oʻyinlari, qilgan qotilliklari xalqning gʻazabiga duchor boʻladi. Bu oʻrinda shuni ahamiyatliki, xalq Poʻlatning togʻga chiqib ketishini, isyon koʻtarishini tabiiy hodisa deb bildi. Poʻlatni qutqaruvchi sifatida koʻrdi. Oddiy odamlarning hayot uchun kurashda hamma narsani batafsil koʻrib chiqish imkoni yoʻq. Xonliklar davridagi qoʻzgʻonlarni koʻzdan kechirar ekanmiz, birdan-bir orzusi farovon yashashni koʻzlagan johil xalqning birovga ergashib, hukumatga bosh koʻtarishni oddiy xatti-harakat sifatida qabul qilganiga tez-tez guvoh boʻlamiz. Poʻlat istamasa ham, oʻziga yuklangan bu rolni oʻynashi kerak edi. Chunki u endi yangi Goʻrogʻli, xalqning najot ramzidir. Goʻroʻgʻli Oʻzbekiston, Turkmaniston va Ozarbayjonda yillar davomida aytilgan epic qahramondir.

Shu sababdan Po'lat zolim xo'jayinlar va xonga qarshi boshlagan harakatida o'zi bilan birga ko'plab odamlarni topsa ajabmas.

Kitobga nomi berilgan Yorqinoy obraziga kelsak, o'zi yashagan muhitning eng qo'rqmas odami Olmas Botirning qizi Yorqinoy asar davomida Po'latga bo'lgan muhabbati va sadoqati bilan alohida xarakter sifatida namoyon bo'ladi. Yorqinoy keksa yoshdagi Nishobsoy begi tomonidan o'g'irlab ketilganida aql bilan ish ko'radi.

Yorqinoy timsolida xalq og'zaki ijodiga xos xususiyatlarni ko'ramiz. Asarni o'qish davomida Yorqinoyni "Alpomish" dostoning qahramonlaridan biri Barchinoy timsoliga mengzashimiz tabiiy hol. Yorqinoy ham Barchinoy singari qo'rqmas, dovyurak, jangga mohir bo'lib tarbiyalanadi. Ammo u Po'latga bo'lgan sevgisini hamma narsadan ustun qo'ysa, Po'lat esa birinchi o'ringa xalqini, or-nomusini qo'yadi. Buni dastavval xizmatchi qiz Qumriga aytgan "Seni sevmayman, sevolmayman. Mening ko'nglimda boshqa narsaning sevgisi" gapidan, so'ngra esa Yorqinoy bilan bir-biriga erishgan paytidagi harakatlaridan, gapidan bilib olish qiyin emas. Qumriga "ko'nglimda boshqa narsaning sevgisi" deganda u Yorqinoyni emas, balki xalqiga bo'lgan muhabbatini nazarda tutgandi.

Asarning butun jismi, qurilishi, shakl-u shamoyilida xalq og'zaki ijodiga xoslik yotadi: xalq kurashadi va zolimlarni yengiz murod-u maqsadiga yetadi. Qahramonlar mohir, botir, ham jismoniy, ham ma'naviy go'zal bo'ladi. Asarda sevishganlar visoli, judoliklari, bir-birini yo'qotishlari, keyin yana topishishlari beriladi. Ular yo'lida har xil g'ovlar, ig'vo nayranglar, soxta maktublarorqali aldashlar bo'ladi, ikki tomonning bir-biriga tuzoq qo'yishlari, shartlashishlari va sir saqlashlar, sirning ochilishlari, sinovlar, xavfli holatga olib kelib kutilmaganda yo ijobiy qahramon, yo salbiy qahramonning g'olib chiqishi – bu kabi holatlar asarning qiziqarliligini yanada orttirgan. Po'lat uzugining yo'qolishi va Kal tomonidan ishga solinishi, Bek uyidagi qoziq detali (Yorqinoy qoziqqa ilingan qilich bilan Bekni o'ldirishi kerak edi, ammo unga bo'yi yetmaydi.) faol xizmat etadi. Ayniqsa, Kal obrazi asarni yanada

jonlantirgan. Cho‘lpon Shekspir asarlaridagi, umuman, Yevropa dramaturgiyasida doim ishtirok etib kelgan qiziqchi obrazlarini ma’qul ko‘rar edi. Hatto “Qiziqqlar” degan maqolasida “Xalq qiziqqlarini o‘rganish teatrimizning komediyachilik tomoni uchun katta oziq beradi”, ularni “opera, drama, komediya sahnalarida ham ko‘rmak istaymiz”<sup>5</sup> deydi. Shu maqolasining boshida qiziq bilan Xon o‘rtasida askiyani keltirgan edi, buni “Yorqinoy” da ishlatib yuboradi. Kal uddaburon, topqir, asar oxirida Yorqinoy bilan Po‘latga yordam beradi. Kalning Yorqinoyga ham “Oyimposhsha” deb murojaat etishida hazil bor edi. Kal sa’j usulida so‘zlaydi, masxarabozliklar qiladi va Bekni kulgili holatlarga tushiradi. Asarning tazyiqlarga qaramay sahnadan tushmasligining asosiy sababi shu xuxsiyatlari bo‘lsa kerak. Unda kamchiliklar ham yo‘q deb bo‘lmaydi. Adabiyotshunos olim Naim Karimov bu haqida quyidagi fikrlarni aytadi:

“eng avvalo , asarning hajmi nihoyatda katta .Ya’ni olti pardadan iborat bo‘lsa-da, bir xil pardalardan 22 tadan ko‘p ko‘rinishlar (Cho ‘lpon majlislar deb beradi) bor. Syujetning tezkorligini – tashqi harakatning nishobligini ta’minlovchi bu usul personajlarning ruhiy dunyosi, ichki kolliziyasini namoyish qilishga ba’zan monelik qilib qoladi, asarni cho‘zibroq yuboradi. So‘ngra Yorqinoy tengsiz qilichboz bo‘ladi, biroq uning Bek ta’qibidan chiqib ketishi bilan bog‘liq sahnalarda uni mushtipar ilojsiz qilib ko‘rsatadi, asarning oxirida Po‘latning davlat ishi bilan band bo‘lib, xotini Yorqinoyning sevgilari , tuyg‘ulari bilan kam qiziqayotganidan nolishi tabiiy chiqmagan. Asarning shakli, janr sirini egallash bilan bog‘liq bu kabi qusurlarning bo‘lishi tabiiy edi. Afsuski, o‘sha davr tanqidchiligi muallifning badiiy nahoratidagi kashfiyoti va izlanishlarini tahlil qilishdan qochib, undan siyosiy xato qidirdi, uydirma yo‘l bilan uni to‘qib chiqardi<sup>6</sup>” .

Cho‘lpon bu asarni rivoyat asosida yozganligini bitib qo‘ygan. Muallif niyati zulm, adolatsizlikni, erksizlikni, zolim va qonxo‘rlikni la’natlash, unga

---

<sup>5</sup> Cho‘lpon badiiy olami

<sup>6</sup> Cho‘lpon badiiy olami



qarshi faol kurashga da'vat etish va adolatli tuzum, adolatpar var podshoh idealini, chin va sadoqatli sevgini, odamlar o'rtasidagi insoniy munosabatlar qaror topishi orzusini targ'ib qiladi. Xonlik tuzumining suyanchig'i, himoyachisi O'lmas Botirning qizi Yorqinoy "biz hali zindonda yuribmiz", "bu zindon narigi zindondan yomonroq bo'lsa nima deysiz?"<sup>7</sup>, deydi va Po'lat bilan yonma-yon turib o'z otasi boshchiligidagi hukumat askarlariga qarshi qahramonlarcha jang qiladi.

O'z asarini nihoyatda mahoratli uslubda qurgan muallif bugungi kungacha ko'plab yozuvchi va shoirlarga ham fikriy, ham uslubiy ta'sir ko'rsatganini inkor etib bo'lmaydi. Uning so'zlariga ko'ra insonni yuksaltiruvchi Vatan bo'lsa, Vatan uchun xizmat qilishdan, u uchun o'lishdan tabiiyroq nima bor?

Po'lat o'z do'stlari–qashshoq xalq vakillari bilan birga hamda yoshlikdan jangovarlik an'analari asosida tarbiya ko'rgan Yorqinoy yordamida xon qo'shinlarini yengib, saltanat tepasiga keladi. Ammo yori Yorqinoyga uning saltanati emas, uni sevuvchi, hayotini bag'ishlovchi Po'lat kerak edi. Po'latning unga e'tiborsizligidan, bo'sh vaqtlari ham xalq g'amini o'ylab o'tkazayotganini ko'rib undan xafa bo'ladi. Shunda Po'lat Yorqinoyga quyidagi gapni aytadi: "Toj-u taxt... Toj-u taxtning orqasida yurt bor, el bor, xalq bor... Uni o'ylash kerak... Uning g'amini yeyish kerak..."

Bu gaplar asardagi voqealardan xulosa yasovchi gaplardir. Muallif ana shu otashli fikrlar orqali nima demoqchi ekanligini aytib o'tadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Yorqinoy" dramasi o'z davri ijtimoiy muhitini to'la aksettira olgan asardir. Bu asarni XX asrning qimmatli manbasi sifatida baholay olamiz.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. 1. Аристотель. Поэтика. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти

---

<sup>7</sup> Cho'lpon. Yorqinoy.1926.36-b

2. Қуронон Дилмурод ва б. Адабиётшуносликка кириш. Т.: Академнашр, 2013.-206
3. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. Ўқитувчи нашриёти. Т.:1986.-407
4. Н.Каримов. XX аср ўзбек адабиёти, Ўқитувчи нашриёти. Т.:1999.-544
5. Чўлпон .Асарлар( учинчи жилд) Академнашр. Т.:2016
6. Дилдора Абдуллаева. Мақола. Чўлпоннинг янги топилган"Яна уйланаман"комедияси ҳақида.